



MULOQOTGA KIRISHISHGA QIYNALADIGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR

Berdiyeva Gulshan Muxtorovna

Buxoro viloyati Olot tumani

3-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda ko'p uchrab turadigan xususiyat Muloqotga kirishishga qiynaladigan bolalarni korrektsiyalash to'g'risida ma'lumot va tavsiyalar keltirilgan. Pedagog va psixologlar faoliyat jarayonida qo'llashlari mumkin.

Kalit so'zlar: Muloqotga kirishishga qiynalish, qo'rquv, qiyinchilik, maslaxat, tavsiya, subyektiv stress, emotsiya, hissiyot, muloqat doirasi.

Bolalar psixologiyasini o'rganish davomida bolalarda ko'p uchrab turadigan psixologik muommoga duch kelamiz bu Muloqotga kirishishga qiynalishidir. Muloqotga kirishishga qiynalish xam og'ishning bir turi hisoblanadi. Bunday bolalar psixologiyasi o'ziga xos tuzilishga ega. Muloqotga kirishishga qiynalish –xam og'ish bo'lib, muloqot doirasining torayishi, atrofdagilar bilan emotsional munosabatda bo'lish imkoniyatining kamayishi, yangi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishda yosh davrlariga xos bo'lgan qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi. Bu og'ishning sababi quyidagilar bo'lishi mumkin: Uzoq davom etgan stress (masalan ota-onaning ajrashishi), emotsional muloqotning yetishmasligi (masalan, uzoq vaqt kasalxonada bo'lish, yoki ba'zan bolaning ota-ona



uchun kutilmagan yoki istalmaganligi, ota-onaning bolaga mehr ko'rsatmasligi), emotsional sferaning o'ziga xos individual patologik xususiyati (psixik jarayonlarning sustligi va h k).

Muloqotga kirishishga qiynaladigan bolaning munosabat o'rnatishi va uning davom ettirish imkoniyatini kamaytiradi, tez-tez ota-onasi va tengdoshlariga, odamlarga salbiy munosabat chaqiradi. Bu bolaning axvolini yanada chuqurlashtirib, og'irlashtirib yuboradi. Muloqotga kirishishga qiynaladigan bola yolg'izlikda yashashga o'rganib qoladi va bu uning shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Muloqotga ehtiyojni emotsional kontakt bosadi,

Muloqotga kirishishga qiynaladigan bola qovog'i solingan, norozi bo'lib ko'rinadi. Shu sababli ota-ona «Biz unga barcha sharoitni yaratib berganmiz, u yana nimadan norozi» deb xafa bo'lishadi. Bu holatda ota-onaning «minnatdorlikka munosiblikni» da'vo qilishlari bolaning ahvolini battar og'irlashtirib yuborishi mumkin. Bola bu narsani o'zining olamiga bostirib kirish deb baholaydi. Bolaning «Nimaga men bilan gaplashmaysiz, nimaga mening ko'zinga qaramaysiz» kabi savollari ular bilan munosabat o'rnatishga to'sqinlik qiladi.

Muloqotga kirishishga qiynalish uyatchanlikdan sifat darajasi bilan farq qilganidek autizmdan ham farqlanadi. Uyatchanlik ijtimoiy muloqotga kirishishning yaxshi shakllanmaganligi natijasi. Shu sababli uning korreksiyasi bola ta'limiga muloqot malakasini qo'shish, o'zgalar harakatini tahlil qilish va o'zlashtirishni eplay olish xolos. Muloqotga kirisha olmaslik autizmga o'xshash harakat korreksion ishning yakuniy bosqichi xolos. Ba'zida ijtimoiy kompetentlikning oshishi parallel holatda korreksiyaning boshqa turini o'tkazishni talab qiladi (tugallovchi bosqichda lekin bu hech qachon asosiy korreksion harakatdan ilgarilab ketmasligi kerak. Odomovi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar uni jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Muloqotga kirishishga qiynaladigan bola bilan korreksion ishning mohiyati bolani atrofdagilar bilan emotsional munosabat o'rnatishiga yordam berishdan iborat. Buning uchun ota-onalarning bittasi bola



bilan emotsional aloqa o'rnatishda **Muloqotga kirishishga qiynaladigan bola bittagina oynasi ochiq qolgan xonaga** o'xshaydi (masalan, ota-onalarning bittasi bilan munosabat). Korreksiyada bu imkoniyatdan foydalanishi kerak, ammo unutmaslik kerakki, agar u ijtimoiy samara bermasa ham munosabat o'rnatishning oxirgi yo'li yopilishiga yo'l qo'ymaslik psixologning burchi. Korreksiyaning bu qoidalari Muloqotga kirishishga qiynaladigan bola bilan ishlashning asosiy yo'nalishlarini beradi:

1. Buzilishga olib kelgan sabablarini bartaraf etish.

2. Bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojini, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatini tiklash yoki qayta qurish.

3. Bolaning oila va tengdoshlar guruhi bilan munosabatlarini tartibga solish (nafaqat bolani boshqa odamlarga «o'girish», balki bola ular o'ylaganidek, yomon yoki yovuz emasligini ko'rsatish).

4. Bolaning muloqot malakasi ta'limi va aloqa o'rnatish.

Bola ta'sirchanligining yuqoriligi sababli korreksiya juda qiyin kechadi, shu sababli u sekin-asta olib borilishi kerak.

Muloqotga kirishishga qiynaladigan bola bilan diagnostika ishi quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Birinchi uchrashuvda psixolog bolaga to'g'ridan-to'g'ri savol berishdan (Sening oting nima? kabi), bolaga ko'z tashlab qo'yishdan, uning «o'ychanligini» aniqlash uchun «yopishib» olishdan, kuchli sezgi uyg'otishdan qochish kerak. Bola bilan munosabat o'rnatishning boshlanishida bosim o'tkazmaslik lozim. Munosabatda salbiy tajribaga ega bo'lgan bola uni yana o'zi uchun yoqimsiz bo'lgan vaziyatga tortayotganlarini tushinmasligi lozim.



2. Psixolog qilayotgan harakat bolaning o'zi qilayotgan harakat ramkasidan chiqmasligi lozim. Unga o'zining o'yinini taklif qilish emas, balki bola nima qilayotganligini kuzatib, u bilan birga shug'ullanishi lozim.

Qo'rquv predmeti bilan o'yin

Bu metod shaxs taraqqiyoti bilan bog'liq emotsional buzilish korreksiyasida maxsus metodlardan biri hisoblanadi. O'yinda qo'rquvni yengib o'tish nafaqat shaxs munosabatini o'zgartiradi, balki qo'rquvdan qolgan hissiyotlarni chiqarib yuboladi. O'yin uchun bola qo'rqadigan narsaga o'xshash o'yinni topish kerak.

Emotsional ta'sir o'tkazish

Ota-onalarning qilgan nasihatlar ko'p hollarda hech qanaqa yordam bermaydi, ammo kattalarning qo'rquv ob'ektiga bo'lgan munosabati bolaga ta'sir qiladi. Qo'rquv emotsional o'tkazish mexanizmi yordamida kattalar munosabati orqali o'tkaziladi. Ba'zan katta odam tasodifan bolaga qanaqadir qo'rquvni yoqtirishi mumkin (masalan, bola itga yaqin turganida qichqirib yuborish). Shu mexanizm yordamida o'tkazilgan qo'rquv orqaga qaytarilishi mumkin. Kamroq qo'rqituvchi ob'ektga qisqa jumla bilan ta'kidlab, ta'sirli imo-ishora bilan qo'rquvni olib tashlash mumkin. Masalan, bola qo'ng'izdan qo'rqa: «Ket qo'ng'iz, xalaqit berma, biz juda bandmiz», yoki vodaprovod trubasi guvillasa: «Guvillashni bas qil, bu behuda». Bunda fikr muhim emas, balki intonatsiya, shu so'zning aytilishi bolaga ishonch va xotirjamlikni yuqtirishi kerak.

Agar bola doimiy ravishda ezilgan, salbiy emotsiyalarni his qilayotgan bo'lsa, bolani ijobiy emotsiyalarni his qilishga o'rgatish asosiy vazifa hisoblanadi. Bunga har xil o'yin metodlari bilan erishish mumkin. Agar bola o'yin faoliyatining taraqqiyotidan ortda qolgan bo'lsa, qoloq bo'lsa, tengdoshlari kabi o'ynay olmasa, bola bilan uning imkoni yetguncha o'ynash kerak. U bilan bir o'yinni o'tkazish, ayni daqiqada bolaning emotsional tonusini oshirish, u bilan ertangi kungi o'yin haqida kelishib olish kerak.



Kutish o'tkazilgan o'yindan ijobiy samara olishga yordam beradi va hatto uni kuchaytiradi. Kutishda bolaning odatdagi holatidan emotsional toni yuqori bo'ladi. Har bir yangi o'yin, sayr va shu kabilar samaradorlikka erishishni mustahkamlaydi. O'yinni kengaytirish, unga yangi elementlarni qo'shish bolada ijobiy emotsiya vujudga keltiradi. Bu metod faqatgina qo'rquvning korreksiyasiga tegishli emas, uni deyarli barcha bola shaxsining emotsional motivatsion sferasi buzilishida qo'llash mumkin. Bola umumiy kechinmalari darajasini o'yin metodi yordamida oshirishning yana bir vazifasi korreksiya olib borayotgan psixologning bolani ishonchini qozonishi talab qilinadi. Chunki ishonch korreksiyaning samaradorligi ehtimolini kuchaytiradi. Ishonchni his qilish bola psixikasiga yaxshi ta'sir qiladi.

Bola nafaqat kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qiladi, balki ularning baho berishlarini yuqtiradi ham. Agar katta odam ovozida qo'rquv bilan biror narsa haqida gapirsa bu emotsional holat bolaga ham o'tadi va u ham biror narsadan qo'rqishni boshlaydi. Shu sababli bolaning atrofidan hayajonli, asabiy kishilarni uzoqlashtirish kerak, yoki ular o'zlarining psixik holati bilan shug'ullanishi lozim. Uyda katta odam bemor bo'lganida bolani davolash befoyda bo'lgani kabi bola atrofida emotsional beqaror odam bo'lganida bolaga yordam berish samarasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Psixologiya" Uch.T-2. "Prospekt". Moskva - 2004.
2. Psixologiya i pedagogika. Pod redaksiey A.A.Radugina. Izd. "Sentr" 2003
3. Aleshina T.G. Shaxsiy va shaxsiy xususiyatlar o'rtasidagi munosabatlar muammosi va o'qituvchilarda hissiy charchoq sindromining shakllanish xususiyatlari. // Psixoterapiya. - 2007. - № 7. - S. 35-38.